

## PROFILAKTIKA INSPEKTORI TOMONIDAN BOSQINCHILIK JINOYATLARINING VIKTIMOLOGIK PROFILAKTIKASINI AMALGA OSHIRISH FAOLIYATINING O'ZIGA XOS JIHATLARI

**Yusupbaev Adilbay Komekbay uli**

*IIV Akademiyasi 3-o'quv kursi,  
314 guruh kursanti.*

**Annotatsiya.** *Mazkur ilmiy maqolada profilaktika inspektori tomonidan bosqinchilik jinoyatlarining tahlil qilingan. Tadqiqotda bosqinchilik jinoyatlarining viktimologik omillari, ya'ni viktimologik profilaktikasini amalga oshirish faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari ilmiy-huquqiy jihatdan jabrlanuvchi shaxslarning ijtimoiy, psixologik va xulq-atvor xususiyatlarining jinoyat sodir etilishiga ta'siri ochib berilgan. Shuningdek, profilaktika inspektorining aholi o'rtasida viktimologik xavfni kamaytirishga qaratilgan profilaktik suhbatlar, huquqiy targ'ibot, axborot-tushuntirish ishlarini tashkil etish hamda manfaatdor tashkilotlar bilan hamkorlik qilishdagi roli yoritilgan. Maqolada amaldagi qonunchilik va huquqni qo'llash amaliyoti tahlili asosida bosqinchilik jinoyatlarining viktimologik profilaktikasini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.*

**Kalit so'zlar.** *profilaktika inspektori, bosqinchilik jinoyatlari, viktimologiya, viktimologik profilaktika, jabrlanuvchi, jinoyatlarning oldini olish, huquqbuzarliklar profilaktikasi, ijtimoiy xavf omillari.*

Jinoyatchilikka qarshi kurashish va jamiyatda shaxs xavfsizligini ta'minlashda huquqbuzarliklar profilaktikasi ustuvor ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, shaxsga qarshi qaratilgan og'ir jinoyatlar toifasiga kiruvchi bosqinchilik jinoyatlari ijtimoiy xavfliligi, jamiyatda qo'rquv va beqarorlikni kuchaytirishi bilan ajralib turadi. Mazkur jinoyatlarning sodir etilishi nafaqat jinoyatchi shaxsi, balki jabrlanuvchining ijtimoiy, psixologik holati va xulq-atvor xususiyatlari bilan ham uzviy bog'liq bo'lib, bu holat viktimologik yondashuvni qo'llash zaruratini keltirib chiqaradi.

Zamonaviy kriminologiyada jinoyatlarning oldini olishda viktimologik profilaktika alohida ilmiy va amaliy ahamiyatga ega yo'nalish sifatida qaraladi. Bunda jinoyatdan jabr ko'rish xavfi yuqori bo'lgan shaxslar va guruhlarini aniqlash, ularning viktimlik darajasini pasaytirish hamda xavfli vaziyatlarni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan, bosqinchilik jinoyatlarining viktimologik profilaktikasini tizimli tashkil etish jinoyatchilikni barvaqt oldini olishning samarali vositalaridan biri hisoblanadi.

Mazkur jarayonda profilaktika inspektori asosiy sub'ekt sifatida ishtirok etib, aholi o'rtasida huquqiy ongini oshirish, xavfli xulq-atvorni kamaytirish, jinoyatdan jabr ko'rish ehtimoli yuqori bo'lgan shaxslar bilan maqsadli ish olib borish vazifasini amalga oshiradi. Profilaktika inspektori faoliyati nafaqat jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan, balki

ehtimoliy jabrlanuvchilar bilan ishlash orqali jinoyatlarning sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etishga qaratilganligi bilan alohida ahamiyatga ega.

Shu bilan birga, amalda profilaktika inspektorlari tomonidan bosqinchilik jinoyatlarining viktimologik profilaktikasini amalga oshirishda tashkiliy-huquqiy, uslubiy va amaliy muammolar mavjudligi kuzatilmoqda. Mazkur holat ushbu faoliyatning ilmiy asoslarini chuqur tahlil qilish, uni takomillashtirishga qaratilgan nazariy xulosalar va amaliy takliflar ishlab chiqish zaruratini belgilaydi.

Bosqinchilik jinoyatiga kriminalistik nuqtai nazardan qaraganimizda bosqinchilikni sodir etish boshqa turdagi xuquqbuzarliklardan fark qiladi. Shundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, uning oldini olishning ham o'ziga xos xususiyati bor.

Bosqinchilik tashqi ko'rinishidan, harakatlari va tajovuzi bilan boshqa turdagi hukuqbuzarlardan fark qiladilar.

Bosqinchilik bazi vaqtlarda fuqarolarning noo'rin istaklari natijasida sodir etiladi. Bosqinchilarni shartli ravishda beshta guruhga bo'lsak bo'ladi:

Qo'nimsiz, doimiy ravishda kezib yuradigan ucharlar. Ular hukukbuzarlikni sodir etgan zahoti boshqa hududlarga yoki respublikadan tashqariga yashirinadilar:

Mayda bosqinchilik sodir etadigan shaxslar;

Doimiy yashash va ish joyi bo'lmagan, bosqinchilik uchun bir necha bor sudlangan shaxslar;

Oldin sudlanmagan, uzoq cho'zilgan bosqinchilikni sodir etgan shaxslar

O'zlarining yengiltakligi bois yoki boshka shaxslar va holatlar tasirida birinchi marta bosqinchilikni sodir etgan shaxslar.

Bosqinchilik qilmishlari jamiyat uchun juda xavflidir. Bosqinchining tajovuzkorligi, bazi holatlarda niqoblanib sodir yetilishi bevosita bosqinchilikka oid hukuqbuzarlikning oldini olinishini qiyinlashtiradi.

Yuqoridagi tushunchalar tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, bosqinchilikning tushunchasi uning sodir etish usuli, shakllari va qo'llash metodlaridan kelib chiqadi. Masalan, bosqinchilik oid barcha tushunchalarda birovni mulkni yoki mulkka bo'lgan huquqni zo'rlik ishlatib yoxud shunday zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitib qo'lga kiritish bilan bog'liq xatti-harakatlar kuzatiladi.

Bosqinchilik jinoyatlarining kamaytirish masalasi HMQOlar oldida turgan eng muhim va ustuvor vazifalaridan bo'lib, mazkur vazifalarni amalga oshirish samaradorligini ta'minlash ko'proq ogoh etuvchi profilaktik chora-tadbirlarni ishlab chiqishni hamda ularni amalga oshirishda qo'llanilayotgan bosqinchilik jinoyatining barvaqt profilaktikasi mexanizmini muntazam ravishda takomillashtirib borishni taqazo etadi. Bosqinchilik jinoyatining barvaqt profilaktikasi samaradorligini ta'minlash uchun eng avvalo mazkur turdagi jinoyatlarning sodir etilish sabablari va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Darhaqiqat, har qanday voqea, hodisa, jarayon yoki mavjudlikning mohiyatini o'rganish uning kelib chiqishi yoki sodir bo'lishiga turtki bergan sabablar, imkoniyat yaratgan shart-sharoitlar haqida aniq ma'lumotga ega bo'lishni talab etadi.

Aksariyat huquqshunos olimlar huquqbuzarlikni kasallikka, huquqbuzar shaxsni bemorga qiyoslashadi va mazmunan ularni bir-biriga yaqin tushunchalar deb bilishadi. Darhaqiqat, penitensiar tizimda jazo huquqbuzar shaxsni jazolashga emas, balki axloqan tuzatishga xizmat qilishi lozim degan qarash mavjud. Tibbiyot sohasida esa bemorni ham jisman, ham ruhan sog'lomlashtirishga e'tibor qaratiladi.

Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, huquqbuzarliklarning barcha sabab va sharoitlari kishilar psixologiyasi va ongiga ta'sir ko'rsatib, ularda g'ayriijtimoiy qarashlarni, xulq-atvorni shakllantiradi yoki ularni oziqlantiradi, kuchaytiradi. Shuning uchun ham huquqbuzarliklarning sabab va sharoitlari hamma vaqt ijtimoiy psixologik xususiyatga ega. Ijtimoiy-psixologik sabab va sharoitlar ijtimoiy sharoitlardan kelib chiqqan bo'lib, ma'lum darajada mustaqildir.

Bosqinchilik jinoyatini sodir etish sababini o'rganish maqsadida shu turdagi jinoyatni sodir etib jazoni ijro etish muassasalarida jazo o'tayotgan mahkumlar orasida o'tkazilgan anketa so'rovlari natijalari shuni ko'rsaktmoqdaki, so'rovda ishtirok etgan 1395 nafar mahkumlarning 30,5 foizi moddiy yetishmovchilik, 28,8% ta'lim-tarbiyadagi kamchilik, 17% ishsizlik, 13,5% huquqiy madaniyatning pastligi, 5,3 foizi profilaktik ishlari yetarli emasligi, 2,2% huquqni muxofaza qiluvchi organlarning faoliyatidagi kamchiliklarni sabab sifatida e'tirof etishgan.

Yoshlar tomonidan bosqinchilik jinoyatining sodir etilishi sababini o'rganish yuzasidan o'tkazilgan so'rovda ishtirok etgan mahkumlarning 38,1% ta'lim va tarbiyadagi sustkashlik, 32% ishsizlik, 14,9% huquqiy madaniyatning pastligi, 5,4% moddiy yetishmovchilik, 4,1% oson yo'l bilan pul topish, 1,6% ni ichkilik, 0,6% internetning salbiy ta'siri deb belgilashgan.

Tahlillardan kuzatish mumkinki, bosqinchilik jinoyatining sodir etilishining asosiy sabablardan biri shaxslardagi pulga bo'lgan extiyojning mavjudligidadir. Shuni unutmash lozimki, shaxslarda bosqinchilik jinoyatini sodir etishga undovchi boshqa turdagi extiyojlar ham mavjud. Har qanday insonda jismoniy ehtiyoj qondirishga bo'lgan xohish kuchliroq bo'ladi. Huquqshunos olimlarning fikriga ko'ra, ayrim toifadagi bosqinchilar xayotda zaruriy ehtiyojni qondirish istagida bosqinchilikka qo'l urishadi. Bosqinchilik orasida spirtli ichimlikka ruju qo'ygan va giyohvandlikka chalinganlarda asosan bunday holat kuzatiladi. Chunki, ularda hayotga, yaxshi yashashga bo'lgan qiziqish so'ngan bo'ladi. Ular faqatgina kundalik jismoniy ehtiyojini qondirish maqsadida bo'lishadi.

Jinoyatlar natijasida fuqarolarga moddiy va ma'naviy zarar yetkaziladi. Xuddi shuningdek bosqinchilik jinoyatidan jabr ko'rgan shaxslarda ham bunday holat kuzatiladi. Biroq bosqinchilik ayrim turdagi jinoyatlardan, jumladan o'g'rilik jinoyatidan o'ziga xos jixatlari bilan farq qiladi. Masalan, o'g'rilik jinoyatining sodir etilishida jabrlanuvchilarning o'z mulkini ochiq qoldirilishi yoki unga bo'lgan beparvoligi sharoit yaratadi. Xuddi shuningdek ushbu turdagi jinoyat o'zganing mulkini yashirin ravishda talon-taroj qilish kabi xatti-harakatlar bilan ifodalanadi. Bosqinchilikning sodir etilishida ug'irlikdan farqli ravishda o'zganing mol-mulkini talon-toroj qilish maqsadida hujum qiladi va hayot yoki

sog'liq uchun xavfli bo'lgan zo'rlik ishlatadi yoxud shunday zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitib sodir etadi.

Qonunda bosqinchilik uchun qat'iy jazo choralari belgilangan bo'lsada, biroq bosqinchilar tomonidan fuqarolarni mulkini egallash maqsadida bosqinchilik xatti-harakatlari davom etadi. Chunki, jazoning og'irligi bu turdagi jinoyatlarni oldini olishga xizmat qiladi degan fikrdan yiroq yo'rishimiz lozim. Bosqinchilik jinoyatining oqibatini bartaraf etish uchun uning sabab va sharoitini chuqur tahlil qilib borish maqsadga muvofiqdir.

Bosqinchilik bilan bog'liq jinoyatchilikka qarshi kurashning eng muhim va asosiy yo'nalishlaridan biri mazkur turdagi jinoyatlarning barvaqt profilaktikasidir. Ushbu profilaktikaning o'ziga xos jihatlaridan biri sodir etilayotgan bosqinchilik jinoyatlarining sabab va sharoitlarini aniqlash hamda ularni bartaraf etish choralari ko'rishdir. Shuningdek, profilaktik chora-tadbirlarni qo'llash samaradorligi huquqni muxofaza qiluvchi organlarning keng jamoatchilik bilan hamkorligining to'g'ri tashkil etilganligiga bog'liqdir.

Darhaqiqat, jamiyatdagi barcha aholi qatlamini turmush tarzini yaxshilash, ularning real daromadlarini oshirish va ijtimoiy qo'llab quvvatlashni takomillashtirish o'z navbatida turli salbiy holatlarni oldini olishga xizmat qiladi. Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, bosqinchilik jinoyatlarining eng asosiy sabablaridan biri bu aholining moddiy ehtiyojlarining qondirilmaganligi, iqtisodiy muammolar e'tirof etilgan. Shu boisdan aholining ehtiyojlarining yetarli darajada qondirilishi bosqinchilik jinoyatlarini oldini olishning asosiy usullaridan hisoblanadi.

Yuqoridagi omillarni bartaraf etmay turib biz jamiyatda uchraydigan salbiy holatlar, shu jumladan bosqinchilik jinoyatlarini oldini olishda natijalarga erishib bo'lmasligini anglashimiz lozim. Shu boisdan, bugungi kunda mamalakatimizda turli sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlarda aholining kam ta'minlangan qatlamini ijtimoiy qo'llab quvvatlash, yangi ishchi o'rinlarini yaratish, "uyushmagan yoshlar"ning mavjud muammolarini aniqlash va bartaraf etish, kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish, aholining turmush darajasini oshirish borasida ko'zga ko'rinarli ishlar amalga oshirildi va ular davom etirilmoqda.

Yengil pul topish, xayotda qiyinchilik ko'rmasdan kun kechirish, kiyinchiliklarni osonlik bilan yengib o'tishga o'rinish har qanday shaxsni o'ziga jalb etish ehtimoli yuqori. Biroq, shuni ta'kidlash joizki, shaxslardagi g'urur, insof, diyonat, vijdon kabi xususiyatlar hamda axloqiy tarbiya tamoyillari ko'pchilikni jinoyat sodir etishiga yo'l qo'ymaydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi to'rt xolatda shaxs bosqinchilikka qo'l uradi degan fikrdamiz:

- axloqiy tarbiyadagi kamchiliklar;
- pulga bo'lgan ehtiyoj qondirish zaruriyati;
- jismoniy ehtiyoj qondirish zaruriyati;
- boyib ketishga bo'lgan kuchli xohish.

Nazariyada bosqinchilik jinoyatining sabab va sharoitlari kelib chiqishi bo'yicha asosiy va asosiy bo'lmagan sabab va sharoitlarga bo'lib o'rganiladi. Asosiy sabab va sharoitlar deb jamiyat rivojlanishining har qanday bosqichida ham bosqinchilining ob'ektiv qonuniy hodisa sifatida mavjud bo'lishini taqozo qiluvchi, belgilab beruvchi hodisa, voqea va jarayonlar yig'indisiga aytamiz. Bunday sabablarga misol qilib ishlab chiqarish bilan iste'mol o'rtasidagi, jamoat manfaati bilan shaxsiy manfaat o'rtasidagi, aqliy mehnat bilan jismoniy mehnat o'rtasidagi va shunga o'xshash jamiyat rivojlanishining ob'ektiv qonunlariga asosan har qanday jamiyatda, uning barcha bosqichlarida mavjud bo'lgan qarama-qarshiliklarni salbiy tomonlarini keltirishimiz mumkin.

Asosiy bo'lmagan sabab va sharoitlar deb, jamiyat rivojlanishining ma'lum bir bosqichida paydo bo'lgan, vaqtinchalik va o'tkinchi xususiyatiga ega bo'lishini taqozo qiluvchi, belgilab beruvchi voqea, hodisa va jarayonlar yig'indisiga aytamiz. Asosiy bo'lmagan sabablarga misol qilib hozirgi vaqtda ishsizlik, yetishmovchilik, huquqiy madaniyatning pastligi, milliy valyutaning qadrsizlanishini, tashkiliy-boshqaruv sohasidagi yo'l qo'yilayotgan xato va kamchiliklarni keltirishimiz mumkin.

Bu turdagi hukuqbuzarlikarning sodir etilishi ko'proq ob'ektiv omillarga bog'lik. Ularga tajovuz kilinayotgan predmetning hususiyati, tajovuz vaqti, joyi, hamda jinoyat sodir egilgan boshqa ob'ektiv shart - sharoitlarni kiritish mumkin. Bunday shart - sharoitlarga jabrlanuvchining shaxsiga xos xususiyatlarni ham qo'rsatish kerak. Masalan, bosqinchilar jabrlanuvchilar turar joyini va jinoiy yo'l bilan topilgan sarmoyasi borligini bilib olib, u yerda nokonuniy tintuv o'tkazishi mumkin. Bunday holatlarda jabrlanuvchining hatti harakati, uning turar joyi va tajovuz uchun sarmoya mavjudligi bosqinchilik sodir etilishida ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi. Bosqinchilar huquqbuzarlikni sodir etishda turli usullardan foydalanadilar va bu huquqbuzar shaxsning malaka darajasini ko'rsatadi, ya'ni huquqbuzarlik sodir etishda ko'llaniladigan uslub, tajovuz qilingan mulk va uning egasi haqida ma'lumotlar hukuqbuzar shaxsda katta ahamiyat kasb etadi. Bosqinchilar aksariyat hollarda pul yoki shunga o'xshagan narsalarni, moddiy qiymatga ega buyumlarni talaydilar. Bosqinchilar ko'pincha davlat organlarining binolariga tutash bulgan turargohlar yoki ko'chalarda, vakzal va aeroportlarda, do'konlarda, jabrlanuvchining yashash va ish joyida, bozor va boshqa joylarda sodir etiladi.

Bosqinchilik sodir etilish jarayonida jabrlanuvchilarning o'zlari ko'pincha o'z harakatlari bilan huquqbuzarlik sodir etilishida sababchi bo'lib qoladilar. Bosqinchilikning kelib chiqishiga ko'pincha ayrim fuqarolarning baxillik, ochko'zlik, pulga xirs qo'yish, tez boyib ketishga va buning uchun ma'lum imtiyozlar yoki kimmatbaxo narsalarni nokonuniy o'zlashtirishga harakat qilishlari sabab bo'ladi. Bunday qo'shtirnoq ichidagi jabrlanuvchilar o'zlariga nisbatan bosqinchilik sodir etilgani to'g'risida ichki ishlar organlariga xabar bera olmaydilar, bosqinchilar ham bu holatni hisobga oladilar va bu ularga ko'l keladi. Jabrlanuvchining shaxsini o'rganishda huquqbuzarlik sodir etilishida uning roli kanday ekanligini yodda tutish kerakki, unda ham hukukbuzarlik sodir etish yoki unga suiqasd qilish imkoni bordir.

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, bosqinchilik jinoyatlarining oldini olishda viktimologik profilaktika an'anaviy jinoyatchilikka qarshi kurash chora-tadbirlarini to'ldiruvchi samarali yo'nalish hisoblanadi. Ayniqsa, profilaktika inspektori tomonidan ehtimoliy jabrlanuvchilar bilan maqsadli ish olib borish, ularning viktimlik darajasini pasaytirish hamda xavfli vaziyatlarni bartaraf etishga qaratilgan choralarni amalga oshirish jinoyatlarni barvaqt oldini olish imkonini yaratadi.

Tadqiqot jarayonida profilaktika inspektori faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari, jumladan, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari bilan individual ishlash, huquqiy targ'ibot va profilaktik suhbatlar o'tkazish, shuningdek, mahalla va boshqa manfaatdor tashkilotlar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yishning ahamiyati asoslab berildi. Mazkur faoliyat jinoyatlarning sodir etilishiga ta'sir etuvchi viktimologik omillarni kamaytirishda muhim rol o'ynashi aniqlandi.

Shu bilan birga, amaliyot tahlili profilaktika inspektorlari tomonidan bosqinchilik jinoyatlarining viktimologik profilaktikasini amalga oshirishda tashkiliy-huquqiy va uslubiy muammolar mavjudligini ko'rsatdi. Xususan, profilaktika tadbirlarini rejalashtirishda viktimologik yondashuvning yetarli darajada qo'llanilmasligi, aholi o'rtasida huquqiy xabardorlikning pastligi mazkur yo'nalishdagi ishlar samaradorligini cheklamoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, profilaktika inspektorlari faoliyatida viktimologik profilaktikani tizimli joriy etish, ularning kasbiy tayyorgarligini oshirish, shuningdek, davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasida o'zaro hamkorlikni mustahkamlash zarur, degan xulosaga kelindi. Mazkur chora-tadbirlarni amalga oshirish bosqinchilik jinoyatlarining oldini olish, aholi xavfsizligini ta'minlash hamda jamiyatda huquqiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 2025 yil 26 dekabr. <https://president.uz/uz/lists/view/8834>

2. Таштемиров А. А., Комилов А. Одам савдоси жиноятига қарши курашишни такомиллаштиришга оид айрим мулоҳазалар //Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. – 2024. – Т. 1. – №. 7. – С. 135-138.

3. Таштемиров, А. А. "Вояга етмаганлар ўртасида ҳуқуқбузарликлар профилактикаси бўйича ички ишлар органларининг ҳамкорлиги." O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali 2.25 (2023): 32-40.

4. Таштемиров, А. А. "Ҳуқуқбузарлик содир этилишининг сабаблари ва шароитларини аниқлаш ва бартараф этиш фаолиятини такомиллаштириш йўналишлари." So'ngi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi 6.12 (2023): 454-461.

5. Tashtemirov A., Baxtiyorov S. Profilaktika inspektorining jinoyat ishlar bo'yicha sudlar bilan hamkorligining o'ziga xos xususiyatlari //Общественные науки в

современном мире: теоретические и практические исследования. – 2024. – Т. 3. – №. Maxsus son 12. – С. 38-42.

6. Tashtemirov A., Usmonova Y. Profilaktika inspektorining yashash manzillaridan uzoq muddatga ketgan shaxslar bo'yicha ishlash faoliyatini huquqiy ta'minlash //Наука и технология в современном мире. – 2024. – Т. 3. – №. 12. – С. 59-61.

7. Tashtemirov A., Usmonova Y. Profilaktika inspektorining yashash manzillaridan uzoq muddatga ketgan yoshlar bilan ishlash faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari //Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2024. – Т. 3. – №. 12. – С. 51-52.

8. Tashtemirov A., Raxmonqulov S. Profilaktika inspektorining yashash manzillaridan uzoq muddatga ketgan shaxslar bilan ishlash faoliyatining tushunchasi //Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2024. – Т. 3. – №. Maxsus son 12. – С. 62-67.

9. Tashtemirov A., Sadullaev M. Huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirishda iiolari profilaktika inspektorlarining bojxona xizmati bilan hamkorligining tashkiliy-huquqiy asoslari //Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2024. – Т. 3. – №. Maxsus son 12. – С. 50-53.

10. Таштемиров А. А. и др. Психологическая поддержка деятельности инспекторов профилактики в работе с лицами, осужденные к наказанию исправительные работы //International scientific research conference. – 2024. – Т. 3. – №. 28. – С. 97-102.

11. Таштемиров, А. А. "Фирибгарликка имкон берувчи шарт-шароитлар ва ушбу турдаги жиноятларга тайинланадиган жазо тизимининг ўзига хослиги." Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук 2.10 (2022): 42-48.

12. Таштемиров, А. А. "Йулларда харакатланишни тартибга солишнинг хукукий жихатлари ва бу борада технологиянинг ахамияти." siyosatshunoslik, huquq va xalqaro munosabatlar jurnali 1.2 (2022): 111-115.

13. Таштемиров, А. А. "Техник криминалистик экспертиза-ахборот технологиялари орқали содир этиладиган жиноятларни фoш этишнинг асосий омили сифатида." O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali 2.21 (2023): 12-19.